Emro Science and Education
International open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 4 (2024) · “Milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish va yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlarini t... DOI: 10.5281/zenodo.24321087

ta’minlashning ustivor yo‘nalishlari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

4. Xalqaro Valyuta Jamg‘armasi (IMF) va Jahon Banki hisobotlari: “Soliq siyosati va ma’muriyatchiligini takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar”.
5. Mustafayev A.M. “O‘zbekiston soliq tizimining rivojlanish bosqichlari va zamonaviy islohotlar”. Toshkent, 2022.
6. Yusupov Z.Sh. “Xufyona iqtisodiyotga qarshi kurashda soliqlarni optimallashtirishning ahamiyati”. Iqtisodiyot va ta’lim jurnali, 2023-yil, №2.
7. Qodirov Sh.R. “Soliq ma’muriyatchiligini soddalashtirishning iqtisodiy samaradorligi”. Iqtisodiy tadqiqotlar instituti nashri, 2023.
8. Jahon iqtisodiy forumi (WEF) tomonidan tayyorlangan Global raqobatbardoshlik indekslari va soliqlarga oid tahlillar
9. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomoni

UY XO‘JALIGI SEKTORINI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISH TAMOYILLARI

Berdiyev G‘ayrat Ibragimovich
Guliston davlat universiteti Buxgalteriya hisobi va moliya kafedrasi mudiri, PhD, dotsent

Annotatsiya
Mazkur tezisda uy xo‘jaligi sektorining iqtisodiyotdagi o‘rni, davlat tomonidan tartibga solish tamoyillari, xalqaro tajriba va mahalliy sharoitda bu sektorni rivojlantirish yo‘llari tahlil qilingan. Uy xo‘jaligi sektorining ahamiyati YAIM tarkibidagi ulushi, iste’mol va jamg‘arma jarayonlaridagi roli orqali ko‘rsatilgan. Ishda davlat tomonidan qo‘llanilayotgan soliqlar, subsidiyalar va ijtimoiy yordam dasturlari misolida tartibga solish mexanizmlari ko‘rib chiqilgan. O‘zbekiston misolida sektor rivojlanishining asosiy ko‘rsatkichlari keltirilib, xalqaro tajribalar bilan taqqoslangan.

Kirish

Uy xo‘jaliklari iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, ular iste’mol, jamg‘arma va bandlikni ta’minlashda katta rol o‘ynaydi. Bu sektor iqtisodiy faollikni saqlash va aholining ijtimoiy farovonligini oshirish uchun davlat tomonidan tartibga solinadi. Uy xo‘jaliklarini tartibga solishning asosiy maqsadi iqtisodiy barqarorlik va ijtimoiy tenglikni ta’minlashdir.

Uy xo‘jaligi sektori har bir mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy barqarorligini ta’minlashda muhim o‘rin tutadi. Ushbu sektor milliy daromadning shakllanishi, ichki talabni oshirish, bandlikni ta’minlash va ijtimoiy farovonlikni rivojlantirishda asosiy vosita sifatida qaraladi. Davlat tomonidan uy xo‘jaliklarini tartibga solish ularning samaradorligini oshirish, ijtimoiy tenglikni ta’minlash va aholi farovonligini yaxshilash uchun zaruriy choralar qatoriga kiradi. O‘zbekistonda uy xo‘jaliklarini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan davlat dasturlari, soliqlarni kamaytirish va moliyaviy yordam tizimlarining takomillashtirilishi mamlakat iqtisodiyotining barqaror o‘sishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Asosiy qism

O‘zbekiston uy xo‘jaliklari sektorini tartibga solish bo‘yicha qator siyosatlarni amalga oshirgan. Ayniqsa, energiya, oziq-ovqat va boshqa ijtimoiy ehtiyojlar uchun subsidiya va imtiyozlarni kengaytirish bo‘yicha qadamlar tashlangan. Davlat tomonidan uy xo‘jaliklari uchun elektr energiyasi va tabiiy gaz bo‘yicha imtiyozlar berilishi aholi farovonligini ta’minlashga xizmat qiladi. Masalan, 2022-yilda davlat budjetidan 7,8

Published: 23.12.2024
Cite this article: Berdiyev G‘ayrat Ibragimovich (2024). Uy xo‘jaligi sektorini davlat tomonidan tartibga solish tamoyillari. Emro Science and Education, 1(4). https://doi.org/10.5281/zenodo.24321087
© 2024 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

trillion so‘m mablag‘ subsidiyalar uchun ajratilgan, bu esa avvalgi yillarga nisbatan 12% ko‘pdir [9].

M.M. Hamidov o‘zining "Uy xo‘jaliklari va ijtimoiy farovonlik" asarida ta’kidlaganidek, uy xo‘jaliklari iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda markaziy o‘rin tutadi. Muallif uy xo‘jaliklari daromadlarining turli xil davlat dasturlari orqali oshirilishini ta’minlashning muhimligini qayd etadi. Xususan, davlat tomonidan ajratiladigan ijtimoiy nafaqalar kambag‘allikni kamaytirishda muhim omil hisoblanadi [3].

A.X. Nishonovning tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, uy xo‘jaliklarini qo‘llab-quvvatlashda iqtisodiy samaradorlikni oshirish uchun soliqlarning o‘rni muhimdir. Muallifning fikricha, aholi daromadlariga soliq yukini kamaytirish va iste’mol xarajatlarini qo‘llab-quvvatlash orqali ichki bozorni rag‘batlantirish mumkin. 2021-yilda qabul qilingan yangi soliq kodeksi bu borada muhim qadam bo‘ldi [6].

A. Saidov o‘zining "O‘zbekistonda ijtimoiy dasturlarni rivojlantirish tamoyillari" nomli monografiyasida ta’kidlaganidek, davlat tomonidan uy xo‘jaliklariga qaratilgan dasturlarni takomillashtirish aholining ijtimoiy barqarorligini oshiradi. Xususan, "Yashil O‘zbekiston" strategiyasi doirasida uy xo‘jaliklariga ekologik toza texnologiyalarni joriy qilish jarayonlari tezlashmoqda. Bu esa energiya tejamkorligini oshirishga xizmat qilmoqda [7].

Uy xo‘jaligi sektori iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Bu jarayonda davlat tomonidan tartibga solishning quyidagi asosiy tamoyillari ajralib turadi:

1. Moliyaviy qo‘llab-quvvatlash tamoyillari. Germaniyada uy xo‘jaliklari uchun energiya xarajatlarini subsidiyalash 2022-yilda 3 milliard yevrodan oshgan bo‘lib, bu aholining xarajatlarini 15% ga kamaytirgan [5]. O‘zbekistonda davlat tomonidan tabiiy gaz va elektr energiyasiga subsidiyalar orqali uy xo‘jaliklari qo‘llab-quvvatlanmoqda.

O‘zbekistonda moliyaviy qo‘llab-quvvatlash tamoyillari davlat tomonidan ijtimoiy adolat va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Bu tamoyillar aholining turmush darajasini yaxshilash, uy xo‘jaliklarini qo‘llab-quvvatlash va kambag‘allikni kamaytirish maqsadida davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida qaraladi.

2022-yilda O‘zbekiston davlat budjetidan ijtimoiy dasturlarni moliyalashtirish uchun 56 trillion so‘m ajratilgan, bu o‘tgan yilga nisbatan 15% ga ko‘pdir. Ushbu mablag‘larning asosiy qismi ijtimoiy himoya va uy xo‘jaliklarini qo‘llab-quvvatlash dasturlariga yo‘naltirildi. Natijada, davlat tomonidan kambag‘allikni kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar tufayli 1 milliondan ortiq fuqaroning daromadlari oshdi [8].

Bank-moliya tizimi ham moliyaviy qo‘llab-quvvatlashda muhim rol o‘ynaydi. "Xalq banki" va "Agrobank" kabi yirik moliyaviy institutlar orqali aholi va uy xo‘jaliklariga imtiyozli kreditlar taqdim etilmoqda. 2021-2022-yillarda uy xo‘jaliklariga qishloq xo‘jaligi texnikalari va tadbirkorlikni rivojlantirish uchun 5,2 trillion so‘mlik imtiyozli kreditlar ajratildi [9].

Davlat tomonidan uy xo‘jaliklariga ajratiladigan subsidiyalar aholining energiya va oziq-ovqatga bo‘lgan xarajatlarini sezilarli darajada kamaytiradi. 2022-yilda tabiiy gaz va elektr energiyasi bo‘yicha 7,8 trillion so‘m miqdorida subsidiyalar taqdim etilgan. Bu subsidiya tizimi 4 milliondan ortiq uy xo‘jaliklarini qamrab oldi [9].

Kambag‘allikka qarshi kurash strategiyasi doirasida "Ijtimoiy himoya yagona reyestri" joriy etilgan. Ushbu tizim yordamida moliyaviy yordam eng ehtiyojmand oilalarga tezkor yetkazib berilmoqda. 2022-yilda ushbu reyestr orqali 2 milliondan ortiq fuqaroga moliyaviy yordam ko‘rsatildi [4].

Jahon banki va Osiyo taraqqiyot banki O‘zbekistonning moliyaviy qo‘llab-quvvatlash dasturlarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynamoqda. Jahon banki 2022-yilda

kambag‘allikni kamaytirish va uy xo‘jaliklariga yordam berish uchun 100 million dollarlik grant ajratdi. Bu mablag‘lar ijtimoiy dasturlarni moliyalashtirishga yo‘naltirildi [10].

2. Ijtimoiy dasturlar va yordam. Xitoyda uy xo‘jaliklarini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash uchun maxsus yordam dasturlari ishlab chiqilgan. 2022-yilda ushbu dasturlar orqali 500 milliondan ortiq aholining asosiy ehtiyojlari qondirilgan [2].

O‘zbekistonda ijtimoiy dasturlar va yordam davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, aholining ehtiyojmand qatlamlarini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan. Ushbu dasturlar kambag‘allikni kamaytirish, kam ta’minlangan oilalarning turmush darajasini yaxshilash va ijtimoiy tenglikni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi.

2022-yilda davlat tomonidan "Ijtimoiy himoya yagona reyestri" orqali qariyb 2,2 million aholi moliyaviy yordam olgan. Ushbu reyestr yordamida yordam to‘g‘ridan-to‘g‘ri ehtiyojmand oilalarga yetkazilib, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimining shaffofligi ta’minlandi [8].

Kam ta’minlangan oilalarga beriladigan bolalar nafaqasi va boshqa ijtimoiy yordamlar davlat budjetining muhim qismini tashkil etadi. 2022-yilda nafaqa va ijtimoiy yordam dasturlari uchun davlat budjetidan 12 trillion so‘m ajratilgan, bu esa o‘tgan yilga nisbatan 20% ko‘pdir. Ushbu mablag‘ning asosiy qismi bolali oilalarga va yolg‘iz keksalarga ajratilgan [9].

2021-yilda ishga tushirilgan "Har bir oila — tadbirkor" dasturi orqali ehtiyojmand oilalarga 2,3 trillion so‘mlik imtiyozli kreditlar ajratildi. Ushbu dastur oilalarning iqtisodiy faolligini oshirishga qaratilgan bo‘lib, 120 mingdan ortiq yangi ish o‘rinlari yaratildi [8].

Sog‘liqni saqlash sohasida ham ijtimoiy yordam dasturlari keng joriy etilmoqda. Xususan, 2022-yilda qishloq joylarda joylashgan kam ta’minlangan oilalar uchun bepul tibbiy yordam xizmatlari uchun 1,5 trillion so‘m ajratildi. Ushbu xizmatlar qariyb 500 ming oilaning sog‘liqni saqlash bilan bog‘liq xarajatlarini kamaytirishga yordam berdi[8].

Uy-joy bilan ta’minlash bo‘yicha ijtimoiy dasturlar doirasida kam ta’minlangan oilalar uchun subsidiya ajratish ko‘lamini kengaytirish choralari ko‘rildi. 2022-yilda davlat tomonidan 10 mingdan ortiq oilaga uy-joy xaridi uchun imtiyozli kreditlar taqdim etildi. Ushbu dastur aholini ijtimoiy himoya qilishning muhim bo‘g‘inlaridan biri sifatida e’tirof etildi [10].

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan ijtimoiy dasturlar va yordam mexanizmlari aholining ehtiyojmand qatlamlarini qo‘llab-quvvatlashda ijobiy natijalar bermoqda. Ammo mavjud tizimni yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni ko‘rib chiqish lozim:

– Ijtimoiy dasturlar uchun ajratilayotgan mablag‘larni iqtisodiy o‘sish bilan mutanosib ravishda oshirish zarur. Bu ehtiyojmand oilalarni qamrab olish darajasini kengaytiradi va kambag‘allikni qisqartirishda samaradorlikni oshiradi.

– "Ijtimoiy himoya yagona reyestri"ni yanada rivojlantirib, sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali yordamni tezkor va aniq yetkazish tizimini shakllantirish zarur. Bu resurslarning maqsadli taqsimlanishini ta’minlaydi.

– Qishloq va chekka hududlarda ijtimoiy dasturlar qamrovini kengaytirish muhim. Hududiy farqlarni kamaytirish uchun maxsus dasturlar va mablag‘lar ajratilishi lozim.

– Nafaqalar va yordam turlarini aholining ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlariga moslashtirish orqali dasturlar samaradorligini oshirish mumkin. Masalan, oilaning daromadi, bandligi yoki yashash joyiga qarab individual yondashuvni qo‘llash zarur.

– Ijtimoiy yordamning natijadorligini o‘lchash uchun mustaqil monitoring tizimlarini joriy qilish kerak. Bu mablag‘lardan maqsadli foydalanishni ta’minlaydi va ijtimoiy siyosatni takomillashtirishga xizmat qiladi.

– Jahon banki va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda O‘zbekistonda ijtimoiy yordam mexanizmlarini rivojlantirish va ularni xalqaro standartlarga moslashtirish muhimdir.

Fikrimizcha, O‘zbekistonda ijtimoiy dasturlarni amalga oshirishda davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirish va samaradorlikni oshirishga qaratilgan islohotlarni davom ettirish zarur. Ushbu chora-tadbirlar aholining ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligini ta’minlash va O‘zbekistonning barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishida muhim rol o‘ynaydi.

3. Xalqaro tajribani mahalliy sharoitga moslashtirish. Xalqaro tajribani mahalliy sharoitga moslashtirish iqtisodiy islohotlar samaradorligini oshirish va ijtimoiy muammolarni hal qilishda muhim vosita hisoblanadi. Rivojlangan davlatlarning uy xo‘jaliklari va ijtimoiy yordam sohasidagi muvaffaqiyatli tajribalarini O‘zbekiston sharoitiga moslashtirish mamlakatning barqaror rivojlanishini ta’minlashga xizmat qiladi. Germaniya, Janubiy Koreya va Xitoy tajribasi ushbu yo‘nalishda alohida ahamiyatga ega.

Germaniyada "sozlash va qo‘llab-quvvatlash" modeli asosida kam ta’minlangan oilalarga moliyaviy yordam va subsidiyalar ajratiladi. 2022-yilda Germaniya davlat budjetining 40% i ijtimoiy dasturlarga yo‘naltirildi, bu esa aholining eng ehtiyojmand qatlamlarini qamrab olishga yordam berdi [5]. O‘zbekistonda ushbu tajribadan foydalanish orqali ijtimoiy yordam dasturlarini moliyalashtirish hajmini oshirish mumkin.

Xitoyda "qishloqdan shaharga integratsiya" modeli doirasida qishloq xo‘jaligidan olinadigan daromadlarni samarali boshqarish va ularni ijtimoiy rivojlanishga yo‘naltirishga e’tibor qaratiladi. Ushbu yondashuv 2022-yilda Xitoyda 20 milliondan ortiq oilaning daromadini oshirishga yordam berdi [2]. O‘zbekistonda qishloq hududlari uchun maxsus ijtimoiy va iqtisodiy dasturlarni ishlab chiqish va moliyalashtirish bu tajribani mahalliy sharoitga moslashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Janubiy Koreyada ijtimoiy dasturlarni amalga oshirishda texnologik yondashuvlar keng joriy qilingan. Masalan, "Social Safety Net" tizimi yordamida ehtiyojmand aholining ehtiyojlari raqamli platformalar orqali aniqlanadi va yordam o‘z vaqtida yetkaziladi. Ushbu tizim orqali 2022-yilda 10 milliondan ortiq aholiga yordam ko‘rsatildi (Korea Small Business Agency). O‘zbekistonda raqamli texnologiyalarni ijtimoiy yordam dasturlariga tatbiq qilish ushbu jarayonlarni tezkor va shaffof qilishga xizmat qiladi.

Braziliya "Bolsa Familia" dasturi orqali kambag‘allikni kamaytirishda sezilarli yutuqlarga erishgan. Ushbu dastur kam ta’minlangan oilalarga nafaqa va ijtimoiy yordam ko‘rsatish orqali ularning daromadini oshirish va ta’limga bo‘lgan qamrovini kengaytirishga yordam beradi. 2020-2022-yillarda dastur doirasida 15 milliondan ortiq oila qamrab olingan [1]. O‘zbekistonda bolali oilalarga qaratilgan dasturlarni kengaytirish va ularni xalqaro standartlarga moslashtirish imkoniyatlari mavjud.

Fikrimizcha, O‘zbekiston xalqaro tajribalardan samarali foydalanib, ularni mahalliy sharoitga moslashtirishi orqali aholining turmush darajasini yaxshilash va kambag‘allikni kamaytirishda yanada katta yutuqlarga erishishi mumkin.

Natijalar

– Uy xo‘jaligi sektori iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, iste’mol, jamg‘arma va bandlikni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi.

– O‘zbekistonda uy xo‘jaliklarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash kambag‘allikni kamaytirish va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashda muhim o‘rin tutmoqda.

– Germaniya va Janubiy Koreya kabi mamlakatlarning soliq imtiyozlari va ijtimoiy dasturlarni amalga oshirish tajribasi O‘zbekistonda samarali tatbiq etilishi mumkin.

– "Ijtimoiy himoya yagona reyestri" orqali yordamni aniq yetkazish tizimi ehtiyojmand oilalarni qo‘llab-quvvatlashda yuqori samaradorlikni ta’minlamoqda.

– Soliq yukining pasaytirilishi va soliq siyosatini soddalashtirish uy xo‘jaliklarining moliyaviy barqarorligini oshirmoqda.

– Xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlik uy xo‘jaliklariga yordam dasturlarini moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

– Qishloq joylarda uy xo‘jaliklarini rivojlantirishga qaratilgan maxsus dasturlar hududiy farovonlikni oshirishda ijobiy natija bermoqda.

Raqamlashtirish va texnologik yondashuvlarni qo‘llash uy xo‘jaliklarini tartibga solish tizimini yanada samaraliroq va shaffof qilishga yordam beradi.

Xulosa

O‘zbekistonning moliyaviy qo‘llab-quvvatlash tamoyillari uy xo‘jaliklarini ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka erishish yo‘lida muhim asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Aholining ehtiyojmand qatlamlarini moliyaviy jihatdan qo‘llab-quvvatlash, kambag‘allikni kamaytirish va turmush darajasini oshirishda davlat va xalqaro tashkilotlar hamkorligi ijobiy natijalar bermoqda.

O‘zbekistonda ijtimoiy dasturlar va yordam tizimi aholining ehtiyojmand qatlamlarini qo‘llab-quvvatlash va ijtimoiy tenglikni ta’minlashda muhim o‘rin tutadi. "Ijtimoiy himoya yagona reyestri", sog‘liqni saqlash xizmatlarini subsidiyalash va uy-joy bilan ta’minlash bo‘yicha dasturlar aholining turmush darajasini sezilarli ravishda yaxshilashga xizmat qilmoqda.

Xalqaro tajribani mahalliy sharoitga moslashtirish O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilishdagi strategiyasini yanada samaraliroq qiladi. Germaniya, Janubiy Koreya va Braziliyaning ijtimoiy yordam, soliq siyosati va texnologik rivojlanish sohasidagi tajribalari mahalliy uy xo‘jaliklari sektorini rivojlantirish uchun namuna bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Ushbu tajribalarni mahalliy sharoitga moslashtirish orqali ehtiyojmand oilalarni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish, hududiy tenglikni ta’minlash va iqtisodiy barqarorlikni kuchaytirish imkoniyatlari kengayadi. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalarni joriy qilish va xalqaro moliyaviy tashkilotlar bilan hamkorlikni kuchaytirish orqali resurslardan samarali foydalanishni ta’minlash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Brazilian Development Bank. Social Programs Impact Analysis. 2022 y.
2. China Development Bank. Household Economic Regulation Reports. 2022 y.
3. Hamidov M.M. Uy xo‘jaliklari va ijtimoiy farovonlik. Toshkent: Iqtisodiyot Nashriyoti. 2020 y.
4. Ijtimoiy himoya agentligi. Ijtimoiy himoya yagona reyestri faoliyati. 2022 y.
5. KfW Development Bank. Subsidy Programs for Households in Germany. 2022 y.
6. Nishonov A.X. O‘zbekistonda uy xo‘jaliklarining soliqqa tortish tizimi. Toshkent: Moliyachi Nashriyoti. 2021 y.
7. Saidov A. O‘zbekistonda ijtimoiy dasturlarni rivojlantirish tamoyillari. Toshkent: Innovatsion rivojlanish Nashriyoti. 2022 y.

8. Statistika qo‘mitasi. O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko‘rsatkichlari. 2022 y.
9. Statistika qo‘mitasi. O‘zbekistonda uy xo‘jaliklari iqtisodiy ko‘rsatkichlari. 2022 y.
10. World Bank. Green Energy Transition Projects. 2022 y.
11. World Bank. Social Assistance and Poverty Reduction Programs. 2022 y.
Xalq banki. Uy xo‘jaliklariga ajratilgan kreditlar bo‘yicha hisobot. 2022 y.

QISHLOQ XO‘JALIGIGA INVESTITSIYALARNI JALB QILISHNING XORIJIY MEZONLARI

Nazirova Sayyora Baxtiyorovna
Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti
1-bosqich tayanch doktaranti
nazirovasayyora51@gmail.com

Annotatsiya
Ushbu maqolada muallif qishloq xo‘jaligiga investitsiyalarni jalb qilishning xorijiy mezonlari haqida o‘z fikrini bildiradi.

Kalit so‘zlar: qishloq xo‘jaligi, sarmoya, kapital oqimi, infratuzilma, iqlim, samaradorlik, oziq-ovqat, siyosiy barqarorlik, mezon

Kirish

Keyingi yillarda mamlakatimiz qishloq xo‘jaligini isloh qilish, xususan sohada davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish, bozor munosabatlarini keng joriy qilish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchi, qayta ishlovchi va sotuvchi subyektlar o‘rtasidagi munosabatlarning huquqiy asosini mustahkamlash, sohaga investitsiyalarni jalb qilish, resurstejamkor texnologiyalarni joriy etish hamda qishloq ho‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarni zamonaviy texnikalar bilan ta’minlash borasida muayyan ishlar amalga oshirilmoqda.

Qishloq xo‘jaligiga xorijiy sarmoyalarni jalb qilish mamlakatning iqtisodiy yuksalishi, oziq-ovqat xavfsizligi va qishloq ravnaqi uchun juda muhimdir. Shu bilan birga, xorijlik investorlar qishloq xo‘jaligiga sarmoya kiritishga qaror qilishda bir qancha mezonlarga e’tibor berishadi. Bu mezonlar mamlakat investitsion muhitining jozibadorligiga bevosita ta’sir qiladi. Muvaffaqiyatli xorijiy investitsiyalar tajribasi boshqa mamlakatlar uchun referat hisoblanadi. Bu tajribalar qishloq xo‘jaligining daromadli tarmoq bo‘lishi, investitsiya xavfini kamaytirish va barqaror rivojlanishga hissa qo‘shishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Asosiy qisim

O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasiga ko‘ra, 2023-yilda jami 22 milliard dollardan ziyod xorijiy investitsiyalar o‘zlashtirilgan, bu avvalgi yilga nisbatan 1,8 barobar ko‘payganligidan dalolat. 2003–2015 yillar mobaynida xorijiy davlatlar va xalqaro moliyaviy muassasalarning kredit va grant mablag‘lari hisobidan umumiy kredit qiymati 1310 mln AQSh dollarilik 36 ta investitsion loyiha doirasida 760,4 mln dollarlik ishlar bajarilib, 1635 tadan ortiq har xil gidrotexnik inshootlar, 262 km uzunlikda sug‘orish tarmoqlari qurildi, 274 km xo‘jaliklararo kollektorlar, 745 km ichki xo‘jalik kollektorlar va 553 km yopiq yotiq drenajlar rekonstruksiya qilindi, 1174 ga maydonda lazerli tekislash ishlari amalga oshirildi, 264 ta ekskavator, 51 ta buldozer, 8 ta zemsnaryad, 4 ta gidroturbina, 56 dona yirik nasos agregatlari olib kelingan. Mamlakatimiz raxbari o‘z ma’ruzalarida xalqaro moliya institutlari mablag‘laridan